

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARINI O'QITISH METODLARI

Jo'rayeva Dilnoza Ro'zimat qizi
PhD

ANNOTATSIYA

Maqolada so'z san'atining gultoji bo'lgan mumtoz adabiyot namunalari vositasida millat kelajagi bo'lgan avlodni oliy insoniy haqiqatlar va yuksak madaniy tamoyillar bilan mazmunan yangi modernizatsiyalashgan ta'lim tizimi asosida tarbiyalashni yo'lga qo'yish, mazkur jarayonning amaliy faoliyat subyektini sanalmish o'qituvchi hamda pedagoglarning nazariy jihatdan tayyorgarligi, amaliy kasbiy kompetensiyasini o'zgaruvchan va shiddat bilan ilgarilab borayotgan zamon talablariga muvofiq tarzda takomillashtirishga doir metodlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: so'z san'ati, madaniy tamoyillar, ta'lim amaliyoti, boshlang'ich sinf, mumtoz adabiyot, ijod, iste'dod.

МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ УЗБЕКСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Жураева Дилноза Рузимат кизи
PhD

АННОТАЦИЯ

В статье посредством классических примеров искусства слова анализируются методы совершенствования воспитания поколения, являющегося будущим нации. Методы рассматриваются на основе новой модернизированной образовательной системы с высокими культурными принципами и в соответствии с требованиями современности.

Ключевые слова: речевое искусство, принципы культуры, образовательная практика, начальная школа, классическая литература, творчество, талант.

METHODS OF TEACHING SAMPLES OF UZBEK CLASSICAL LITERATURE IN PRIMARY SCHOOL

Jo'rayeva Dilnoza Ro'zimat qizi, PhD

ABSTRACT

The article, through classical examples of the art of words, analyzes methods for improving the education of the generation that is the future of the nation. Methods are considered on the basis of a new modernized educational system with high cultural principles and in accordance with the requirements of modern times.

Key words: speech art, principles of culture, educational practice, primary school, classical literature, creativity, talent.

Sharq pedagogikasi hamda ta'lim amaliyoti o'zining uzoq davrdagi ulkan tajriba va an'analari asosida bugungi kun odamlari, xususan, yosh avlodni ajdodlar o'gitiga tayanib zamonning turfa muammolarini ma'naviy yondashuv bilan hal qilishga qodir insonlar sifatida tarbiyalash va mas'ullik ruhida kamol toptirishga intilishi tabiiy jarayon sanalib, erishilgan yutuqlar hamda to'plangan tajribalarni kundalik amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda yoshlikdan farzandlarimizni o'z milliy an'analarini ulug'laydigan, umuminsoniy qadriyatlarni oliy haqiqat deb biluvchi avlod qilib tarbiyalash ta'lim sohasining yetakchi vazifasi qilib belgilangan. Mamlakatimizda millat ertasi bo'lgan yosh avlodni buyuk ajdodlarga munosib voris bo'lib kamol topishi uchun zaruriy huquqiy asoslar hamda talab darajasidagi shart-sharoitlar yaratilgan. Bu, o'z o'rnida, yurtda ma'naviy va intellektual salohiyatli shaxslarning kamol topishi, bu orqali mamlakatning tez sur'atlarda rivoj topishi kafolatlanadi.

Har qanday fanlarda bo'lgani kabi boshlang'ich sinflar o'quv rejasiga kiritilgan predmetlar bilan bog'liq muhim yumushlaridan biri "o'qitishning maqsadi, vazifasi va mazmunini aniqlab olishdan iboratdir"[1,35]. Chunki bu tushunchalar barcha o'quv predmetlarini, xususan, boshlang'ich sinflarda "O'qish kitobi"dagi badiiy matnlarni, jumladan, unga kiritilgan mumtoz adabiyot bilan bog'liq namunalarini o'qitishning asoslarini tashkil etuvchi kategoriyalardir. O'zbek metodikasida adabiyot o'qitishning bosh maqsadini professor Q.Yo'ldoshev birinchi marta aniqlab va belgilab bergan edi: "...barkamol shaxsni shakllantirish marrasi milliy maktablarimizda adabiyot o'quv predmetini o'rganish uchun bosh maqsad bo'lishi mumkin ekanligini qadimiy qadriyatlarimiz ham, ma'naviy an'analarimiz ham, uzoq tarixga ega pedagogik amaliyotimiz ham, kishilarimiz ruhiy olamiga chuqur singib ketgan badiiy adabiyotimiz ham taqozo etadi"[1,42]. Bosh maqsaddan kelib chiqqan holda metodist olim V.Qodirov mumtoz adabiyot namunalarini o'qitishning maqsadini o'ziga xos tarzda aniq ifodalab berdi: "Uni quyidagicha ifoda etish mumkin: ta'lim bosqichlarida mumtoz adabiyot (umuman adabiyot) o'qitishdan ko'zlangan bosh maqsad tarbiyalanuvchilar shaxsiyatida komillik sifatlarini muayyan darajada shakllantirishdan iborat"[2,54].

Pedagogika fanlari doktori V.Qodirov o'zining tadqiqotlarida barkamol inson g'oyasi barcha diniy, ilohiy kitoblarda asosiy maqsad sifatida talqin qilinganiga, ayrim xalqlar nomi bilan bog'liq falsafa va ta'limotlarda ham yetuk shaxs g'oyasi mavjudligiga e'tibor qaratib, Islom dini negizida paydo bo'lgan tasavvuf ta'limotida komil inson g'oyasi yaxlit bir tizim bo'lib shakllanganini e'tirof etadi [2,52-53].

“Asosiysi, tarbiyalanuvchi, ta’lim oluvchi anglab yetadiki, o‘zlashtirilayotgan fanlar o‘z holicha alohida-alohida bilimlar yig‘indisi emas, balki yaxlit bir butun ilmning turli ko‘rinishlaridir. Fanlar bir-birini to‘ldiradi, izohlaydi, rivojlantiradi. Shu tufayli ular bir-birini taqozo etadi. Dunyoni hayratga solgan Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Alisher Navoiy singari allomalar aynan shu konsepsiya asosida ta’lim olib, qomusiy aql egalari bo‘lib yetishganlar”[2,52].

Ushbu fikrlar har tomonlama barkamol shaxs tarbiyasi ta’lim jarayoni, jumladan, boshlang‘ich sinflarda “O‘qish kitobi”ni, xususan, bu bosqichda mumtoz adabiyot namunalarni o‘rganish uchun maqsad bo‘la olishini istifoda etish zaruratini belgilaydi.

Shu o‘rinda mumtoz adabiyot o‘qitish vazifasiga berilgan ta’rifga diqqat qaratamiz: “...mumtoz badiiy tafakkur tarzini anglaydigan, obrazlar tabiati va ular o‘rtasidagi munosabatni idrok etadigan, ramziy va majoziy tasvirni talqin va tahlil qila oladigan, mumtoz so‘z jozibasini his etadigan, mutolaani o‘zining hayotiy ehtiyojiga aylantirgan, adabiyotni olam va odamni tushunish vositasi deb biladigan yuksak ma’naviyatga intiluvchi kitobxon o‘quvchini shakllantirish”[2,54]. Ushbu ta’rif bizning mavzumizga ham bevosita bog‘liq: qadimdan to bugungacha insoniyat tarixidagi buyuklar kichik yoshdan badiiy asar mutolaasiga haris bo‘lganliklari, “mutolaani o‘zining hayotiy ehtiyojiga aylantirgan, adabiyotni olam va odamni tushunish vositasi deb biladigan yuksak ma’naviyatga intiluvchi” shaxslar bo‘lishgani hammamizga ayon haqiqat. Shuningdek, dinimiz tarixidagi valiy zotlarning aksari so‘z san’atiga oshno, ko‘plari esa mashhur adib bo‘lishgani bejiz emas. Bu shuni yana bir bor tasdiqlaydiki, adabiyotga oshnolik kishida nozik intuitsiyaga, ruhiy-ma’naviy tafakkurga, ijodiy iste’dod shakllanishiga asos bo‘ladi va odamni har doim ushbu imkoniyatlarini charxlab boradi. Demak, zikr qilayotganimiz bu fazilatlar shaxsda komillik belgilarini yuzaga chiqaruvchi bosh omillardandir. Mazkur jihatlar umumta’lim maktablarida boshlang‘ich sinflardan o‘quvchilarni ajdodlarimiz merosi bilan tanishtirish, ularning qatida jo bo‘lgan badiiy nafosat, ulkan ma’rifat, yuksak ma’naviyatni ularning ongu shuuri, qalbiga singdirib borish zaruratini o‘rtaga chiqaradi.

Ta’limning har bir bosqichi, bosqichlarning o‘zidagi ichki darajalanishlarga ko‘ra o‘quv predmetini o‘qitish maqsad hamda vazifalari muayyan darajada farqlanishi tabiiy. Shundan kelib chiqsak, boshlang‘ich sinflarda mumtoz adabiyot o‘qitishning maqsadi, vazifalariga o‘ziga xos yondashuv, o‘ziga xos ta’rif kerakligi o‘rtaga chiqadi. Boshlang‘ich sinflarda mumtoz adabiyot o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilar shaxsiyatida komillik sifatlariga xos chizgilarni muayyan darajada shakllantirishdan iborat. Qo‘yilgan maqsad uni amalga oshirish yo‘lidagi vazifalarni belgilashni ham taqozo qiladi. Boshlang‘ich sinflarda mumtoz adabiyot namunalarni o‘qitish vazifalari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin: mumtoz adabiyotimizning yirik vakillarini

taniydigan, mumtoz adabiyotga xos ohang, shakl va mazmuni his eta olishning dastlabki ko'nikmalariga ega, ramziy va majoziy tasvirlar talqini va tahlil orqali o'ziga didaktik xulosa chiqara oladigan, mumtoz poetikani yosh xususiyatiga ko'ra ma'lum darajada idrok eta oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish.

Belgilab olingan ushbu maqsad va vazifalarga mos keladigan adabiy ta'lim mazmunini belgilab olish muhim ahamiyatga ega ekanligini metodist olimlar qayd etadilar: "Ma'lumki, o'quvchilarga beriladigan bilimlar va ularga singdiriladigan amaliy ko'nikmalar tizimi muayyan hujjatlar, darsliklar va qo'llanmalarda aks etadi. Ayni shu narsalar ta'lim mazmuni degan tushunchani ifoda etadi"[1,49]. Yurtimiz mustaqilligining dastlabki yillarida adabiyot, "O'qish kitobi" predmetidan metodika va pedagogika fanlarining oxirgi yutuqlarini o'zida jo ettirgan dasturlar tuzildi va ular asosida hozirgacha o'qitib kelingan maktab darsliklari yaratildi. 5-11-sinf darsliklarida mumtoz adabiyot namunalari berilishi borasidagi fikrlar V.Qodirovning tadqiqotlarida bayon etilgan [1,53-61]. Biz bu o'rinda boshlang'ich sinflarda mumtoz adabiyot namunalarini o'qitish bilan mulohazalarimizni bayon qilamiz.

O'tmish sara adabiyot namunalarini tizimli o'rganish boshlang'ich sinflardan boshlanadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar adiblar suratlari, ma'rifiy matnlar orqali ularning shaxsiyati, ijodi, hayotlariga doir ibratli voqeliklar, fikrlar bilan tanishadilar. Biz tadqiqotlarimiz davomida ushbu bosqichda o'qituvchilar tomonidan bir qator o'ziga xos tajribalar borligiga guvoh bo'ldik. Ularni umumlashtirgan va takomillashtirgan holda quyidagicha tasnifladik:

1. Darslikka kiritilgan mumtoz adiblar bolalarga ularning suratlari orqali tanishtiriladi. Bir necha avlod darsliklaridan Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira kabi so'z ustalari joy olib kelmoqda. "Bu o'ziga xos ma'rifiy ahamiyatga ega. Chunki suratlar shunchaki ko'rinish, tasvirgina bo'lib qolmay, ayni paytda san'at asarlari hamdir. Ularda rassomning adiblarga mehri aks etgan bo'ladi. Bu suratlar orqali uyg'otilgan mehr, hurmat bolalarda adiblarning ijodiga ehtirom tuyg'usini tarbiyalaydi"[1,57].

2. Mustaqillikdan keyin chop etilgan "O'qish kitobi"dan joy olgan mumtoz adiblar to'g'risidagi hikoyalar, rivoyatlar, qissadan olingan qismlarni o'rganish orqali bolalar ularning hayoti, ijodiy faoliyati, ma'rifati, ma'naviy olamiga kirib boradilar. Masalan, amaldagi 3-sinf darsligida [3,120] mumtoz adiblar bilan bog'liq to'qqizta matn berilgan bo'lib, ular Alisher Navoiy, Bobur va Ibn Sino haqidadir. Shu bilan birga ikki o'rinda hadislardan namunalari ham berilgan. 4-sinf darsligida[4,134] ham yana shu siymolar va Pahlavon Mahmud to'g'risida rivoyat bor hamda hadis namunalari o'qish uchun kiritilgan.

3. Ayrim o'tmish adabiyotining sara asarlaridan olingan parchalarning zamonaviy o'zbek tiliga tabdil qilingan namunalari darsliklar orqali yoki qo'shimcha

mashg'ulotlarda o'zlashtiriladi. Darsliklarga qarasak, 3-sinfda Navoiyning bir nechta hikmatli baytlari (ularning ikkitasi tabdil qilinmay, asl holda berilgan) hamda 4-sinfda Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Husayn Koshifiy asarlari o'rganiladi.

4. Darsliklarda berilgan yoki qo'shimcha mashg'ulotlar uchun tanlangan lavhalar, rivoyatlar, hayotiy hikoyalar, adiblar ijod namunalari sinf o'quvchilari bilan sahnalashtirib o'rganish mumkin. Buning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolalar yoshiga mos, matndan uzoqlashmagan holda ijro uchun qulay ssenariy yozib, o'quvchilarga rollarni ularning jinsiga, xarakteri yoki o'zining tanloviga ko'ra bo'lib berishi kerak. "Ssenariyli o'qitish harakatli faoliyat orqali tasavvur va tushunchalarni jonlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatdir" [5,23]. Psixologlar ham harakatlar orqali abstrakt tushunchalarni jonlantirish samarali kechishini ta'kidlaydilar[6,78].

5. Tavallud kuni nishonilayotgan adiblarga bag'ishlab tayyorlangan maktab miqyosidagi kecha yoki tadbirlarda qatnashish yoki sinfning o'zida o'quvchilar bilan tadbir tashkil qilish. Sinfda o'quvchilar bilan o'tkazilsa, bu tadbirning aniq rejasi tuziladi. Muallimlar iloji boricha tanlangan asarlar tabdilini emas, uning asl matnini o'quvchilarga yodlatishi, u to'g'risida qisqacha ma'lumot beruvchi kichik ma'ruza tayyorlashi kerak.

Amalda bo'lgan "O'qish kitob"larida mumtoz adiblar haqida hikoya, rivoyatlar keltirilgan, asarlaridan qisqa namunalar berilgan. Masalan, 1-sinfda Alisher Navoiy haqida o'ta muxtasar ma'lumot, bu mutafakkirning to'rtta hikmatli o'giti, "Alisherning yoshligi" deb nomlangan Oybekning asaridan olingan parcha, shoirning donoligi aks etgan "Non isi" rivoyati; Abu Ali ibn Sino to'g'risidagi ma'lumot, u haqida yozuvchi Mirkarim Osim asaridan olinib, shartli ravishda "Kitobga mehr" deb nomlangan parcha va ayni shaklda Zahiriddin Muhammad Bobur bilan tanishtiruv davom ettirilgan[8,23-33].

2-sinfda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridan parcha, Maqsud Qoriyevning "Ibn Sino bolaligi", Zamira Ibrohimovaning "Kichkina Alisher" hikoyasi, Xurshid Davronning "Alisher Navoiy" she'ri "Otalar so'zi – aqlning ko'zi" rukni ostida berilgan[7,86-113].

3-sinf darsligidan[3,120] "Bobur va kabutar" rivoyati (55-57-betlar), Oybekning qissasidan olingan "Bola Alisher" parchasi (74-75-betlar), Mirkarim Osimning Ibn Sino to'g'risidagi "Yosh hakim" hikoyasi (75-77-betlar), "Ibn Sinoning shogirdlari" rivoyati (121-123-betlar), Abduqodir Hayitmetovning Alisher Navoiy haqida ikki qismdan iborat "Donolarning donosi" lavhasi (127-129-betlar), "Navoiyning do'sti" rivoyati (130-131-betlar), Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi Xayriddin Sulton va Mirzo karimning hikoyalari (131-136-betlar) joy olgan.

Boshlang'ich sinfning yakunlovchisi bo'lmish 4-sinf darsligi [4,134] berilgan o'quv materiallarning hajmi va salmog'i bilan ajralib turadi. Lekin oldingi sinfga

qaraganda mumtoz adabiyot namunalari berilishida o‘shish sezilmaydi. “Vatanimiz o‘tmishidan” ruknida Pahlavon Mahmud haqidagi H.Hamidovning “Pahlavon va shoir” (94-96-betlar), Oybekning qissasidan olingan “Alisherning yoshligi” matnlari (96-100-betlar); “Ajdodlarimiz – faxrimiz” ruknida berilgan Navoiy haqidagi Xondamirning “Tanbeh” hikoyasi (179-180-betlar), T.Adashboyevning “Navoiy bobomlar” she’ri (181-bet), Bobur hayotiga oid “Hidi, tilimi va mazasidan” rivoyati (182-183-betlar) joy olganini ko‘rish mumkin.

Nazarimizda, bu sinfda mumtoz adabiyot namunalari hajmini ko‘paytirib, Ahmad Yugnakiy, Xoja, Ogahiy, Munis, Uvaysiy, Nodira kabi ijodkorlar haqidagi hikoyalar, rivoyatlar, shuningdek, bu adiblarning asarlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu, avvalo, dastur (darslik) materiallarining turfa, rang-barang bo‘lishini ta’minlasa, boshqa tomondan, o‘quvchilarni mumtoz ijodkorlarning kengroq davrasi bilan tanishtirish imkonini yaratadi. Asosiysi, rus metodisti A.Gromseva qayd etganidek, boshlang‘ich sinflarda qo‘yilgan asos (poydevor) keyingi sinflarda intellektual “bino”ning qad ko‘tarishiga omil bo‘ladi [9,100].

Albatta, ushbu joriy dasturga kiritilgan mumtoz adabiyotga taalluqli materiallar muayyan izlanishlar natijasi o‘laroq tavsiya etilgan. Lekin hamma narsada bo‘lganidek, u mukammallikni da’vo qilmaydi, shuning uchun takomillashtirishga, yangilanishga ehtiyoj bo‘laveradi.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ: (REFERENCES)

1. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 192 б.
2. Кадиров В. Умумтаълим мактабларида мумтоз адабиёт намуналарини ўқитишнинг илмий-педагогик асослари: Пед. фанл. док-ри ...дисс. Наманган, 2019. – 260 б.
3. Umarova M., Xamrakulova X., Tojiboyeva R. O‘qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – Т.: O‘qituvchi NMIU, 2019. – 120 б.
4. Matchonov S., Shojalilov A., G‘ulomova X., Sariyev Sh., Dolimov Z. O‘qish kitobi. 4-sinf darsligi. – Т.: Yangiyo‘l polgraf servis, 2017. – 134 б.
5. Umarova M., Hakimova Sh. O‘qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – Т.: Cho‘lpon, 2008. – 124 б.
6. Высотский Л.С. Собр.соч. в 2-томах, 1-том. – М.: Просвещение, 1982. – 251 с.

7. G'afforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z. O'qish kitobi: 2-sinf uchun darslik. – T.: Sharq, 2018. – 112 b.
8. G'afforova T., Shodmonov E, Eshturdiyeva G. O'qish kitobi. 1-sinf darsligi. – T.: Sharq, 2017. – 140 b.
9. Громцева А. К. Формирование у школьников готовности к самообразованию. – М.: Просвещение, 1983. – 2008 с.
10. Абдулвохидов Э. Литературоведческая пропедевтика. Наманган: Издательство «USMON NOSIR MEDIA», 2023 г. – 228 с.